TILSHUNOSLIK

Abdusalomov Firuz (O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Xorijiy tillar markazi katta o‘qituvchisi, dotsent; Toshkent, O‘zbekiston)

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA DISKURS MASALASI VA UNI O‘RGANISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya. *XX asrning oxirlariga kelib, jahon tilshunosligida nutqiy tuzilmalarni, ular bilan bog‘liq faoliyatni muallif va muloqot jarayonini idrok etuvchi shaxs nuqtayi nazaridan tadqiq etishga alohida e’tibor qaratildi. Zamonaviy tilshunoslikda diskurs tushunchasining shakllanishi, aynan nutqiy tuzilmalarni muloqot jarayonida o‘rganishga qaratilgan yondashuvlarning natijasi sifatida yuzaga keldi. Diskurs masalasi bo‘yicha bir qator ilmiy nazariyalar va qarashlar mavjud bo‘lib, ularning tahlili orqali turli nuqtayi nazarlarni umumlashtirish va o‘zaro munosabatlarini aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. Tarixan, “matn” atamasi diskurs bilan teng ma’noda ishlatilgan bo‘lsa-da, keyinchalik, “matn” faqat yozma muloqot turiga, “diskurs” esa og‘zaki muloqotga nisbatan qo‘llanila boshlandi. Shu sababli mazkur maqolada diskurs tushunchasining asosiy mohiyati va unga oid turli yondashuvlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *diskurs, matn, harbiy diskurs, yondashuv, intensional tuzilish, og‘zaki va yozma diskurs.*

ПРОБЛЕМА ДИСКУРСА И ТЕНДЕНЦИИ ЕЕ ИЗУЧЕНИЯ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. *Конец XX века ознаменовался повышенным вниманием в мировой лингвистике к изучению любых речевых структур как результата речевой деятельности с точки зрения как их создателя, так и воспринимающего их субъекта в процессе коммуникации. В современной лингвистике появление понятия дискурса связано с изучением речевых структур в контексте коммуникативного процесса. Существуют различные научные теории и подходы к дискурсу, и их анализ, а также обобщение различных взглядов и выражение отношений между ними имеют важное значение. Исторически термин «текст» использовался как синоним дискурса, однако позднее «текст» стал ассоциироваться с письменной формой коммуникации, а термин “дискурс” – с устной. Поскольку термин “дискурс” является ключевым для рассматриваемой проблемы, в данной статье проводится анализ его определений и подходов к нему.*

Ключевые слова: *дискурс, текст, военный дискурс, подход, интенциональная структура, устный и письменный дискурс.*

THE PROBLEM OF DISCOURSE AND TRENDS IN ITS STUDY IN MODERN LINGUISTICS

Annotation. *At the end of the 20th century, there was an increased focus in the world of linguistics on studying any speech structures as a result of speech activity from the perspective of both the creator and the recipient of the communication. In modern linguistics, the emergence of the concept of discourse is associated with the study of speech structures within the communicative process. There are various scientific theories and approaches to discourse, and their analysis, as well as the generalization of different viewpoints and expressing relationships between them, hold significant importance. Historically, the term “text” was used as a synonym for discourse, but later “text” became associated with written communication, while the term “discourse” came to be associated with spoken communication. Since the term “discourse” is key to the issue being discussed, this article analyzes its definitions and the approaches to it.*

Keywords: *discourse, text, military discourse, approach, intensional structure, oral and written discourse.*

Kirish. “Diskurs” atamasi lotincha “discursus” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u “mulohaza yuritish”, “harakat qilish”, “suhbat” kabi ma’nolarni anglatadi. Fransuzcha “discours” esa “nutq” tushunchasiga to‘g‘ri keladi. Ushbu atama tilshunoslik, falsafa va epistemologiya nuqtayi nazaridan chuqur tadqiq qilingan bo‘lib, uni birinchi bo‘lib Emile Benveniste ilmiy jihatdan asoslab bergan. U Ferdinand de Sossyurning izdoshi sifatida uning til tizimi (langue) va nutq (parole) oppozitsiyalaridan farqli yondashuvni ilgari surib, “parole” tushunchasining o‘rniga “diskurs” atamasini kiritgan. Ushbu tadqiqot diskurs tushunchasining nazariy asoslarini tahlil qilish hamda uning amaliy ahamiyatini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot usuli va muhokama. Tadqiqot davomida lingvistik tahlil va falsafiy-epistemologik yondashuvlar qo‘llanildi. Diskurs nazariyasiga oid ilgari olib borilgan ilmiy ishlar tahlil qilinib, ularning asosiy jihatlari qiyosiy o‘rganildi. Shuningdek, tarixiy va kognitiv metodlardan foydalangan holda diskurs tushun-

chasining shakllanishi hamda turli ilmiy maktablarda qanday talqin etilishi tadqiq qilindi. Tadqiqotda strukturalistik va poststrukturalistik paradigmalarga asoslangan terminologik yondashuvlar o‘rganildi.

Diskurs, ilmiy va lingvistik nuqtayi nazardan, matn tushunchasidan kengroq va murakkabroq bo‘lib, u nafaqat nutq jarayonini, balki shu jarayon natijasida paydo bo‘lgan matnni ham o‘z ichiga oladi. Diskurs jarayon sifatida ham, matn sifatida ham o‘rganilishi mumkin. Matn, odatda, tayyor va turg‘un bir mahsulot sifatida qabul qilinadi, diskurs esa doimiy ravishda rivojlanayotgan va o‘zgarib borayotgan nutqiy muloqot jarayoni sifatida qaraladi. Lingvistik adabiyotlarda diskurs tushunchasi doimiy ravishda o‘zgarib turadi, chunki bu atama turli kontekstlarda, bir tomondan, matnning alohida qismlaridan, boshqa tomondan esa butunlay mustahkam bo‘lgan nutq jarayonlarigacha bo‘lgan hodisalarni ifodalash uchun qo‘llaniladi.

Diskurs tushunchasi lingvistik tadqiqotlar sohasida turli yo‘nalishlarga asoslanib keng o‘rganilmoqda, ammo uning aniq ta’rifi hali shakllanmagan. Zellig Xarris tomonidan 1950-yillarda “Diskurs tahlili” maqolasida ilk bor tilshunoslikda qo‘llanila boshlandi [8;13-b.]. Xarris diskursni faqat nutq yoki matn sifatida emas, balki uni tashkil etuvchi kommunikativ jarayon sifatida talqin qilgan. Diskurs nafaqat til birliklarining yig‘indisi, balki ijtimoiy va madaniy kontekstda shakllanadigan, fikr almashish, ta’sir o‘tkazish va muloqotda qatnashuvning natijasi sifatida ham o‘rganiladi.

So‘nggi yillarda diskurs tilshunosligi keng tarqalib, zamonaviy lingvistika sohasida muhim tadqiqot obyekti sifatida qaralmoqda. Bu atamaning lingvistik kontekstda qo‘llanilishi turlicha bo‘lishiga qaramay, uning asosiy maqsadi an’anaviy nutq, matn va dialog tushunchalarini aniqlashtirish hamda ularni yanada rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlarga yo‘naltirilgan. Tilshunos olim A.Pardayev diskurs ta’rifini talqin qilishda, lisoniy va nolisoniy vositalardan foydalangan holda, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi o‘zaro fikr almashish va ta’sir ko‘rsatish maqsadida o‘zlari eng samarali deb hisoblagan shakl va turda amaliy foydalanish jarayonini ta’kidlaydi [11;78-b.]. Olimning fikricha, diskurs – bu jarayon bo‘lib, insoniy faoliyat turi sifatida lisoniy va nolisoniy omillarning birgalikda, bir maqsad yo‘lida amalga oshirilishi hisoblanadi.

Tilshunoslar diskurs tushunchasini turli xil nuqtayi nazarlardan tahlil qiladilar. Ushbu atama keng miqyosda qo‘llanilishi bilan birga, turli semantik qirralarda talqin qilinmoqda. Dastlab, diskurs “bog‘lanma matn” tushunchasini aks ettirgan bo‘lsa, keyinchalik esa “suhbat” va “dialog” kabi kommunikativ shakllar bilan ham bog‘lanib, kengaytirilgan. Diskurs zamonaviy tilshunoslik, semiotika va falsafada murakkab va aniqlashda qiyin bo‘lgan tushunchalardan biri bo‘lib, ayniqsa, ingliz va fransuz tillarida so‘zlashuvchi madaniyatlarda keng tarqalgan. Ushbu madaniyatlarda “nutq” tushunchasi ijro, fikrlash va muloqot kabi ma’nolarni o‘z ichiga olgan holda talqin qilinadi. Biroq rus tilida, ko‘plab boshqa Yevropa tillariga o‘xshab, bu atama uchun aniq ekvivalent mavjud emas va u turli kontekstlarga qarab “nutq”, “so‘z”, “matn” yoki “fikrlash” kabi ma’nolarda tarjima qilinadi [9;113-b.].

Tilshunoslarning tadqiqotlari asosida, “diskurs” tushunchasi talqini bo‘yicha uchta asosiy yondashuv mavjud. Ba’zi manbalarda, diskurs janrga o‘xshash hodisa sifatida ko‘riladi, bunda u nutqiy janrlarning o‘ziga xos strukturasiga ega bo‘lib, maxsus til vositalaridan foydalanadi, maqsadli adresatga yo‘naltirilgan, belgilangan kommunikativ maqsadlarga xizmat qiladigan va axborot uzatish imkonini yaratadigan xususiyatlarga ega ekanligi ta’kidlanadi. Bundan tashqari, diskurs, axloqiy va etik qoidalarga asoslangan nutq shakli sifatida ham tushuniladi.

N.Abdurahmonovaning fikriga ko‘ra, diskurs atamasi polisemiya hodisasi sifatida izohlanadi va matn tilshunosligida polisemantik tushuncha bo‘lib, turli mualliflar tomonidan deyarli omonim ma’nolarda qo‘llaniladi. Eng keng tarqalgan talqinlar orasida “izchil matn”, “matnning og‘zaki so‘zlashuv shakli”, “dialog”, “monolog”, “ma’no jihatdan bog‘liq gaplar guruhi” hamda “og‘zaki nutqiy asar” kabi tushunchalar mavjudligi ta’kidlanadi [1;88-b.].

Debora Shifrin diskurs tushunchasini uch tomonlama yondashuv asosida tahlil qilishni taklif etadi [6;19-b.]. *Birinchi yondashuv* – tilshunoslikning formal yo‘nalishiga asoslangan holda, diskursni shunchaki gap yoki so‘z birikmasidan yuqori darajadagi til hodisasi sifatida ko‘radi va uni “language above the sentence or above the clause” (gap yoki so‘z birikmasidan yuqoridagi til) sifatida talqin qiladi. *Ikkinchi yondashuv* – diskursga funksional yondashuvni qo‘llab-quvvatlab, uni “the study of discourse is the study of any aspect of language use” (diskurs tadqiqoti – tilning har qanday qo‘llanilish jihatlarini o‘rganish) hamda “tilning turli-tuman ishlatilishi” sifatida tavsiflaydi. Ushbu yondashuv tilning keng ijtimoiy-madaniy kontekstdagi vazifalarini o‘rganishga qaratilgan. *Uchinchi yondashuv* esa shakl va funksiyaning o‘zaro ta’sirini ta’kidlab, diskursni fikr ifodasi sifatida – “discourse as utterances” deb talqin qiladi. Ushbu ta’rifga ko‘ra, diskurs “gapdan kattaroq” bo‘lgan lisoniy tuzilmalarning oddiy yig‘indisi emas, balki til ishlatilishining funksional jihatdan tashkil topgan va kontekstuallashtirilgan birliklar majmuyidir.

Umuman olganda, diskurs izchil matn bo‘lib, u faqat lingvistik jihatlar bilan cheklanmay, balki ekstralingvistik omillar, jumladan, pragmatik, sotsial-madaniy va psixologik faktorlar bilan ham uzviy bog‘liq holda shakllanadi. U maqsadli ijtimoiy harakat sifatida talqin qilinib, nutqiy faoliyat, shaxslararo muloqot hamda inson ongidagi kognitiv jarayonlarning ajralmas komponenti sifatida namoyon bo‘ladi.

Natijalar. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, diskurs nafaqat lingvistik hodisa, balki ijtimoiy-madaniy va psixologik jarayon bilan ham uzviy bog‘liqdir. Benveniste tomonidan ishlab chiqilgan yondashuv diskursning dinamik tabiatini ta’kidlab, uni an’anaviy til tizimidan farqlaydi. Tadqiqot davomida diskurs gap darajasidan yuqoriroq turuvchi lingvistik struktura sifatida qaralishi lozimligi aniqlangan. Diskurs lingvistik tushuncha sifatida XX asrning o‘rtalarida tilshunoslikda shakllangan bo‘lib, tilni pragmatik nuqtayi nazardan tadqiq etishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarda turli ma’nolarda qo‘llanila boshlagan. Ushbu atama: so‘z muqobili sifatida; frazalardan kattaroq lisoniy birlik sifatida; nutq vaziyatini hisobga olgan holda fikrning adresatga ta’siri nuqtayi nazaridan; suhbat va nutqda so‘zlovchining pozitsiyasini aks ettirish jihatidan; lisoniy birliklardan foydalanish jarayoni sifatida; fikrning ijtimoiy yoki mafkuraviy cheklangan shakli sifatida; matn hosil bo‘lish shartlarini tadqiq etishga qaratilgan nazariy konsepsiya sifatida izohlangan. Shu tariqa, diskurs tushunchasi tilshunoslikning turli yo‘nalishlarida keng qamrovli tadqiqot obyektiga aylangan.

Diskurs bu matnni muloqot jarayonida dinamik holatda, ijtimoiy-madaniy kontekstda hamda lingvistik va ekstralingvistik omillar ta’siri ostida o‘rganishni nazarda tutuvchi murakkab kommunikativ-kognitiv hodisadir. U faqat lisoniy emas, balki nolisoniy axborot, jumladan, dunyo haqidagi bilimlar, hodisalar, qadriyatlar va inson fikrlash jarayonlari bilan ham uzviy bog‘liqdir. Ushbu omillar diskursni anglash, qabul qilish va talqin qilish jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi.

Diskursning o‘ziga xos jihati uning *antropotsentrik xarakteri* bo‘lib, u muallif tomonidan modellashtiriladigan o‘ziga xos badiiy olam manzarasini obrazli shaklda ifodalash imkoniyatiga ega. Shu sababli diskurs kommunikatsiyaning eng murakkab shakllaridan biri bo‘lgan badiiy-adabiy muloqotning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Unda kommunikativ subyektlar faqat muallif va kitobxon bilan cheklanmay, balki badiiy asardagi personajlar ham diskurs jarayonida faol ishtirok etadi.

V.Z.Demyankov diskursning intensional tuzilishi tahlili asosida uning intensional gorizonti va *interpretatsiya konteksti* haqida fikr bildirib, uning *mantiqiy tuzilishga egaligini* qayd etadi va bu asosda diskursning boshlang‘ich tuzilishi *konyunksiya, dizyunksiya va boshqa mantiqiy munosabatlar orqali bog‘langan elementar propozitsiyalar ketma-ketligi* ko‘rinishida namoyon bo‘lishini ilgari suradi [10;219-b.]. Uningcha, diskurs tarkibiga faqatgina *bayon etilgan voqea-hodisalar va ularning qatnashchilari emas*, balki: a) hodisalardan keyingi holatlar – *hodisalar natijasida yuzaga kelgan vaziyatlar;* b) hodisalarni aniqlashtiradigan fon – *voqea-hodisalarni to‘g‘ri talqin qilish uchun zarur bo‘lgan kontekst;* d) voqea-hodisa qatnashchilarining bahosi – *hodisalarga turli tomonlar tomonidan berilgan baho va ularning subyektiv qabul qilinishi;* e) diskursni voqealar bilan solishtiradigan axborot – *diskursdagi ma’lumotlar va real voqealar o‘rtasidagi bog‘liqlik* kabi axborot elementlari ham kiradi.

XX asr oxirlarida tilshunoslikda yangi ilmiy yo‘nalish – diskursologiya shakllandi. Ushbu tarmoq nutqiy muloqotni tadqiq etuvchi fan sifatida yuzaga chiqdi. Tadqiqotchilar nutq sathining maksimal birligi masalasida abzasni alohida birlik sifatida ajratish borasida shubha bildiradilar. Chunki abzasning shakllanishi, ko‘pincha, subyektiv omillar, muallifning uslubiy xususiyatlari hamda grafik qoidalarga bog‘liq bo‘ladi. Sh.Safarov tadqiqotlarida nutqiy muloqotdagi eng yuksak birlik darajasiga faqat diskurs ko‘tarilishi mumkinligi ta’kidlanadi [5;77-b.]. Bu yondashuv diskursni matndan ham yuqori darajadagi lingvistik va kommunikativ hodisa sifatida talqin qilishga asos yaratadi.

Diskurs ifodalanish vositasiga qarab ikkiga bo‘linadi: og‘zaki va yozma diskurs. Og‘zaki diskurs – real vaqt rejimida shakllanadi, shuning uchun u takrorlash, ikkilanish, qisqartirish kabi xususiyatlarga ega bo‘ladi. Suhbat jarayonida so‘zlovchilar tez fikrlashga va darhol javob berishga majbur bo‘lgani sababli, nutqda noaniqlik, ortiqcha elementlar yoki grammatik jihatdan to‘liq bo‘lmagan jumlalar uchrashi mumkin. Yozma diskurs esa oldindan rejalashtiriladi, tuzilishi puxta ishlanadi, grammatik va stilistik jihatdan aniq bo‘lishi talab etiladi. U real vaqtda shakllanmagani uchun strukturaviy yaxlitlik va mantiqiy izchillik asosida quriladi. Shunday qilib, og‘zaki diskurs interaktiv va dinamik bo‘lsa, yozma diskurs statik va refleksiv (ya’ni, chuqur o‘ylangan, puxta ishlangan) bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Diskursni tahlil qilishda uning shakllari, funksiyalari va muloqot jarayonidagi o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotimiz tahlillari asosida og‘zaki va yozma diskurs bir-biridan ajralib turuvchi, lekin o‘zaro bog‘liq tushunchalar bo‘lib, ularning xususiyatlari alohida ko‘rib chiqishni lozim deb topdik:

Mezonlar (xususiyatlar)	Og‘zaki diskurs	Yozma diskurs
Rejalilik	ko‘pincha rejasiz, tabiiy oqimda yuzaga keladi	oldindan rejalashtiriladi, tuzilishi aniq bo‘ladi
Intonatsiya va talaffuz	muhim rol o‘ynaydi, hissiyot va urg‘ularni yetkazishga xizmat qiladi	intonatsiya mavjud emas, lekin tinish belgilari, struktura yordamida ifodalanadi
Strukturaviy yaxlitlik	to‘liq bo‘lmagan gaplar, uzilishlar bo‘lishi mumkin	tuzilishi aniq, grammatik jihatdan yaxlit bo‘ladi
Tinglovchi (adresat) bilan aloqa	bevosita o‘zaro ta’sir mavjud (savol-javob, mimika)	o‘quvchi bilan bevosita aloqa yo‘q
Takrorlash va qisqartirish	ko‘p uchraydi va tushunmovchiliklarni oldini olishga xizmat qiladi	kamdan kam uchraydi, lo‘ndalik va aniq ifoda ustuvor hisoblanadi

Diskurs oddiygina til birliklarining to‘plami emas, balki muloqot jarayoni va ijtimoiy kontekst bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan hodisadir. Diskursni to‘liq tushunish uchun faqatgina lingvistik tahlil yetarli emas, balki uning ijtimoiy, madaniy, pragmatik, psixologik va kommunikativ jihatlarini ham hisobga olish zarur.

Diskursning asosiy xususiyatlari

1.	Ma’lumot va kommunikatsiya	Diskurs nafaqat ma’lum bir mavzudagi axborotni yetkazadi, balki uni qanday taqdim etish va qanday qabul qilish muhimligini ham o‘z ichiga oladi.
2.	Muloqot qatnashchilari	Diskursda adresant (nutq sohibi) va adresat (tinglovchi yoki o‘quvchi) o‘rtasidagi o‘zaro munosabat katta ahamiyatga ega. Kim gapiryapti, kimga mo‘ljallangan va qanday vaziyatda ekanligi diskurs mazmunini shakllantiradi.
3.	Muloqot vaziyati va konteksti	Diskurs doim ma’lum bir sharoit va muhitda yuzaga keladi, bu esa uning mazmuniga bevosita ta’sir qiladi. Masalan, siyosiy nutq, ilmiy maqola yoki norasmiy suhbat – har biri turli kontekstlarda yuzaga keladi va har xil tushuniladi.
4.	Makon va zamon munosabatlari	Qayerda va qachon sodir bo‘layotgani diskursning tarkibiy qismi hisoblanadi. Masalan, qadimgi matnni hozirgi zamonda o‘qish yoki boshqa madaniyat vakillarining diskursini tahlil qilishda makon va vaqt omillari alohida ahamiyat kasb etadi.
5.	Muloqot shakli va bayon uslubi	Og‘zaki va yozma diskurs farqli tuzilishga ega bo‘lib, har birining o‘ziga xos grammatik va stilistik xususiyatlari bor. Masalan, og‘zaki diskursda takrorlash va intonatsiya muhim bo‘lsa, yozma diskursda tuzilma va mantiqiy izchillik ustuvor ahamiyatga ega.
6.	Muloqot qatnashchilari tomonidan baholanishi	Diskurs nafaqat obyektiv ma’lumotni yetkazadi, balki unda nutq sohibining subyektiv bahosi, nuqtayi nazari va pozitsiyasi ham aks etadi. Masalan, OAVda turli siyosiy voqealar bir xil faktlar asosida, lekin turlicha baholanib yoritilishi mumkin.

Zamonaviy tilshunoslikda diskursni turli mezonlar asosida tasniflash mumkin. Muloqot shakli, ishtirokchilari, vaziyat va maqsad kabi omillar diskursning turini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi.

T/r	Diskurs turlari	Subguruhlar	Xususiyatlari
1.	Muloqot shakliga ko‘ra	Og‘zaki diskurs	Jonli muloqot, suhbat, ma’ruza, intervyu, nutq. U bevosita va dinamik xususiyatga ega, intonatsiya va jestlar bilan boyitiladi.
		Yozma diskurs	Maqolalar, kitoblar, ilmiy ishlar, hujjatlar, qonunlar. Bu statik shakl bo‘lib, mantiqiy izchillik va aniq tuzilmani talab qiladi.
2.		Individual diskurs	Shaxsiy bloglar, monologlar, shaxsiy kundaliklar, yakka suhbatlar.

	Ishtirokchilar soni va ma'lumot uzatish usuliga ko'ra	Ommaviy diskurs	OAV, siyosiy chiqishlar, reklama, targ'ibot-tashviqot materiallari, ijtimoiy tarmoqlardagi ommaviy postlar.
3.	Muloqot vaziyati va maqsadiga ko'ra	Akademik diskurs	Ilmiy maqolalar, konferensiya nutqlari, ta'lim darsliklari.
		Siyosiy diskurs	Saylovoldi nutqlari, rasmiy chiqishlar, qonunchilik munozaralari.
		Ilmiy diskurs	Fundamental tadqiqotlar, ilmiy jurnallar, laboratoriya hisobotlari.
		Diniy diskurs	Diniy marosimlar, va'zlar, muqaddas matnlar tafsiri
4.	Yangi shakllar	Interdiskurs	Turli diskurs turlarining o'zaro aralashuvi yoki birbiriga ta'siri. *Masalan, ilmiy va ommaviy axborot vositalari diskursi o'zaro kesishishi natijasida ilmiy-ommabop maqolalar yuzaga keladi.*
		Subdiskurs	Keng diskurs ichida alohida ixtisoslashgan kichik tarmoq. *Masalan, siyosiy diskurs ichida "saylovoldi kampaniyalari diskursi" yoki diniy diskurs ichida "fatvo diskursi".*

Professor G.N.Manaenko ushbu masalani o'rganishga turli yondashuvlarni umumlashtirib, diskursni "inson faoliyatining har qanday sohasidagi subyektning ijtimoiy-tarixiy sharoitlar, shuningdek, tashkil etish va talqin qilishning o'rnatilgan stereotiplari bilan belgilanadigan umumiy qabul qilingan nutq xatti-harakati turi" [4;160-b.] deb ta'riflaydi. Uning fikricha, diskurs to'rt murakkab jihatdan: muhit, ijtimoiy subyekt, mazmun va matndan tashkil topadi.

Insoniyatning ijtimoiy, kommunikativ aloqaga kirishi sababi ma'naviy va moddiy ehtiyojlari tufayli sodir bo'ladi. Ehtiyojlar esa, zamon va makonga qarab o'zgaradi. Bundan diskurs davr o'tishi bilan o'zgarib turuvchi hodisa ekanligi anglashiladi. Diskurs murakkab nutqiy kommunikativ hodisa bo'lib, unga matndan tashqari, matnni tushunish uchun zarur bo'lgan ekstralingvistik omillar ham kiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari diskurs tushunchasining lingvistik va falsafiy asoslarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Diskurs tilshunoslik bilan cheklanmay, ijtimoiy fanlar, falsafa va psixologiya doirasida ham muhim kategoriya sifatida o'rganilishi lozim. Bizningcha, diskurs tahlili turli fanlar orqali amalga oshirilishi mumkin: Lingvistik yondashuv diskurs tuzilishini, grammatik va semantik xususiyatlarini o'rganadi. Madaniy yondashuv nutqning ijtimoiy-madaniy kontekstda qanday shakllanishini tahlil qiladi. Siyosiy tahlil diskursda mafkura va hokimiyat munosabatlarini o'rganadi. Psixologik tahlil nutq ishtirokchilarining motivatsiyasi va ta'sirchanligini ko'rib chiqadi. Demak, diskurs bu shunchaki bog'langan gaplar yig'indisi emas, balki fikr almashinuvi orqali ijtimoiy haqiqatni shakllantiruvchi muhim vosita hisoblanadi.

Yuqoridagi barcha fikrlarni umumlashtirgan holda diskurs tushunchasi murakkab va ko'p qirrali abstrakt tushuncha ekanligi oydinlashadi va faqat lingvistik hodisa sifatida emas, balki kengroq ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida qo'llaniladi. Tadqiqot natijalari asosida diskursning quyidagi jihatlari misollar orqali dalillandi: abstrakt tushuncha (aniq chegaralarga ega bo'lmagan, turli tahlil yondashuvlariga ochiq hodisa); murakkab tuzilma (tizimlashtirish qiyin bo'lgan, ko'p sohadagi munosabatlarni qamrab oladi); ijtimoiy kontekst bilan bog'liqlik (har bir diskurs ijtimoiy, madaniy va siyosiy sharoitlarda shakllanadi); kommunikativ faoliyat mahsuli (matn yoki nutqiy jarayon sifatida yuzaga chiqadi); aniq vaqt va makon talabi (diskurs doim vaqt va makon sharoitlarida sodir bo'ladi); nutqiy harakat zarurati (har qanday nutq yoki yozuv diskursga aylanishi uchun maqsadli kommunikativ harakat bajarilishi lozim). Shu bois diskursni faqat til hodisasi sifatida emas, balki ijtimoiy, madaniy va kognitiv fenomen sifatida ham tushunish lozim. Diskurs hodisasining semiotik va kognitiv o'ziga xos jihatlarini yanada chuqurroq tahlil qilish va uning amaliy qo'llanilishi imkoniyatlarini kengaytirish kelajakdagi ilmiy tadqiqotlarda tadqiq etiladigan dolzarb masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Abdurahmonova N. Tilshunoslikda diskurs va matn tushunchalarining chegaralari va bir-biri bilan munosabatlari. Toshkent, 2022.

(2). Dijk van T.A. The Study of Discourse. Discourse as Structure and Process. Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction. London – Thousand Oaks – New Delhi, SAGE Publications. 1997, Vol.1, 352 p.

(3). Gee J.P. An introduction to discourse analysis. Theory and practice. Routledge, 2005, p. 209.
(4). Manaenko G.N. Nutq, matn va til bilan bog'liq nutq. Til. Matn. Nutq. Universitetlararo nashr. 1. Stavropol; Pyatigorsk. PGLU, 2003. 26–40-betlar.
(5). Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, 2008.
(6). Schiffrin D. Approaches to Discourse. Oxford, Cabridge, MA, 1994.
(7). Shukurov U.I. Siyosiy diskurs: nazariy asoslari va kommunikativ strategiyasi. Filol.fan.dissert.avtoref., Andijon, 2023.
(8). Zellig S.Harris. Discourse analysis (journal article). Linguistic society of America, 1952.
(9). Арутюнова Н.Д. Дискурс. Лингвистический энциклопедический словарь. М., 1990.
(10). Демьянков В.З. Теория интерпретации в прикладной лингвистике. Проблемы вычислительной лингвистики и автоматической обработки текста на естественном языке. М., МГУ, 1980, с. 125–158.
(11). Пардаев А. Сўз таърифи хусусида. «Интернаука», научный журнал, часть 2, Москва, 2017, № 11(15).

Abduraxmanova Madina Ulugbekovna (ADCHTI 1-kurs doktoranti; lady.abdurahmanova@bk.ru)

DISKURS ILMIY REFLEKSIYALARNING OBYEKTI SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada diskurs tushunchasining ilmiy yondashuvlari tahlil qilingan. Diskurs va matn o'rtasidagi tafovutlar aniqlangan. Milli va xorijiy tilshunos olimlarning bu ikki tushuncha borasidagi qarashlari tadqiqi amalga oshirilgan. Diskurs ijtimoiy-faoliyatli xarakterga ega ekanligi, kognitiv tabiatga egaligi, lisoniy va lisoniy bo'lmagan omillarning ta'sirini aks ettirishi, kommunikativ xilma-xilligi va o'zgaruvchanligi bilan ajralib turishi haqida mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *diskurs, matn, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, psixologiya.*

Абдурахманова Мадина Улугбековна (докторант 1-курса АГИИЯ; lady.abdurahmanova@bk.ru)

ДИСКУРС КАК ОБЪЕКТ НАУЧНЫХ РЕФЛЕКСИЙ

Аннотация. *В данной статье проанализированы научные подходы к понятию дискурса. Определены различия между дискурсом и текстом. Проведено исследование взглядов отечественных и зарубежных лингвистов на эти два понятия. Высказаны соображения о том, что дискурс имеет социально-деятельностный характер, когнитивную природу, отражает влияние лингвистических и нелингвистических факторов, отличается коммуникативным разнообразием и изменчивостью.*

Ключевые слова: дискурс, текст, лингвистика, культурология, психология.

Abdurakhmanova Madina Ulugbekovna (1-year doctoral student at the ASIFL; lady.abdurahmanova@bk.ru)

DISCOURSE AS AN OBJECT OF SCIENTIFIC REFLECTION

Annotation. *This article analyzes scientific approaches to the concept of discourse. The differences between discourse and text are defined. A study of the views of domestic and foreign linguists on these two concepts has been conducted. Considerations are expressed that discourse has a socio-activity character, cognitive nature, reflects the influence of linguistic and non-linguistic factors, and is characterized by communicative diversity and variability.*

Keywords: *discourse, text, linguistics, cultural studies, psychology.*

Kirish. Tilshunoslik, madaniyatshunoslik, psixologiya va bir qator shu kabi bir-biriga bog'liq fanlar negizida paydo bo'lgan diskursni tushunishda, eng avvalo, zamonaviy ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish zarurdir. Dastavval, diskurs va matn o'rtasidagi tafovutga to'xtalish darkor.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Diskurs va matn tushunchasi an'anaviy ravishda ongli amallar bilan bog'liq hisoblangan, shuningdek, kognitiv jarayonlar realizatsiyasi natijalarini til tizimi belgilari yordamida mustahkamlashga ehtiyoj sanalgan. U yoki bu matnlar madaniyatni, qadriyatlarni, an'analarni bir avloddan keyingi avlodga yetib borishi va saqlanishidagi asosiy vositalardandir. Matn – bu terminning an'anaviy tushunilishi bo'yicha "aloqa, moslashish" degan ma'nolarni anglatadi. Matn bu barcha gumanitar-falsafiy qarashlarning birlamchi omili bo'lib, tafakkurning hech narsaga bog'liq bo'lmagan haqiqatidir [1]. M.M.Baxtinning aynan mana shu konsepsiyasi tilshunoslikda matn tushunchasiga asos bo'ldi va XX asrning ikkinchi yarmida rivojlana boshladi. Matn tushunchasi borasida o'nlab ta'riflar keltirilgan bo'lib, ular turli-tuman yondashuvlar bilan amalga oshirilgan. L.G.Babenko, I.Y.Vasilyev va Y.V.Kazarin ta'kidlashlaricha, matnning umumqabul qilingan ta'rifi yo'q. Turli olimlar bu xodisaga turlicha ta'rif beradilar. D.N.Lixachev matnda qandaydir g'oya ilgari suriladi, deydi [2]. O.L.Kamenskaya, matnning asosiy roli verbal kommunikatsiya vositasidaligidir, deydi [3]. A.A.Leontyev, matn bu nutqiy hosilaning funksional tugallanganligi, deydi [4]. I.R.Galperin matnning o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir deydi [5].